

O‘zbekiston
Metama’lumot
Jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati

Ishlab chiqilgan sana: 31.10.2025

Oxirgi yangilangan sana: 31.10.2025

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi

2021-yil 11-avgustda Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo uchun Rasmiy statistika to‘g‘risidagi namunaviy qonuni asosida ishlab chiqilgan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikaning tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikaning tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi to‘g‘risida nizomga muvofiq, Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etilishini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo‘lgan statistika uslubiyotlarining bir xilligini ta’minlash; statistika ma’lumotlarini yig‘ishni, uy xo‘jaliklarining statistika kuzatuvlarini, ro‘yxatga olishlarni, bir marotabalik hisobga olishlarni, tanlanma so‘rovlarni va boshqa statistika kuzatuvlarini o‘tkazishni tashkil etish; barcha darajadagi foydalanuvchilarni belgilangan tartibda rasmiy statistika ma’lumotlari bilan ta’minlash; statistika maqsadlarida foydalanish uchun statistika registrlari va tasniflash tizimini yuritish uchun javobgar hisoblanadi.

Shu bilan birga, Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma’lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma’lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;

- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo'lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;

- statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;

- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

Statistika jarayonlarini boshqarish, shu jumladan statistika ma'lumotlarini tayyorlash va tarqatish xalqaro sifatni boshqarish modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0)ga asosan ishlab chiqilgan milliy tartib-taomillarga muvofiq amalga oshiriladi.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

Milliy statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Milliy statistika qo'mitasining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Ijtimoiy soha statistikasi boshqarmasida 7 nafar xodim ishlaydi. Boshqarma 3 ta bo'limdan iborat.

Turizm statistikasi bo'yicha xodimlarni o'qitish doimiy ravishda olib boriladi. Jumladan, boshqarma xodimlari O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida, shuningdek, xalqaro statistika tashkilotlarining boshqa seminarlarida o'z malakalarini oshiradilar.

Boshqarmada kompyuterlar soni yetarli bo'lib, har bir xodim alohida kompyuter bilan ta'minlangan. Barcha kompyuterlar lokal tarmoqqa ulangan, shuningdek, internet tarmog'iga kirish imkoniyatiga ega.

Moliyaviy mablag'lar statistika dasturi doirasida taqdim etiladi va ushbu dasturda nazarda tutilgan statistika ishlarini bajarish uchun yetarlidir.

1. Beg'arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan beg'arazlik va xolislik hisoblanadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo'ysunadi.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e'tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslari, o'quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta'minlash orqali ta'minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o'quv kurslarida ma'ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e'lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta'minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, ma'lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog'lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma'lumotlar to'plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma'lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

Milliy statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb-saytiga (<https://stat.uz>) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

Hukumat Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo'mita direktori, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Milliy statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Milliy statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Milliy statistika qo'mitasi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi

Milliy statistika qo'mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalarini tasdiqlagan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Milliy statistika qo'mitasi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va tushunchalar

2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

“Jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati” ko'rsatkichlarini hisobga olishning uslubiy asosi, “Turizm statistikasi bo'yicha uslubiy nizom” hisoblanadi.

Jamoaviy joylashtirish vositalari — bu hisobot davrida mamlakat (yoki hudud)da mehmonlarni vaqtinchalik yashash bilan ta'minlash bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi jamoaviy joylashtirish vositalarining jami soni. Ushbu obyektlar aholiga va tashrif buyuruvchilarga tunash, yashash, maishiy va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan bo'lib, turli toifadagi mehmonxonalar, motel, mehmon uylari, yotoqxonalar, sanatoriylar, dam olish uylari, pansionatlar, turistik bazalar hamda boshqa shu kabi joylashtirish vositalarini o'z ichiga oladi.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini qamrab oladi.

Jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish uchun 1 turizm shakli "Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va joylashtirish to'g'risida hisobot", 1kb (tur) (1kb shakliga ilova) "Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va joylashtirish to'g'risida mikrofirm va kichik korxonaning hisoboti" sayyohlik-ekskursiya va joylashtirish (jamoaviy joylashtirish vositalari) xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladigan statistika hisobotlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyatining ko'rsatkichlarini hisoblashda istisnolar mavjud emas.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Aniqlanmagan faoliyat mavjud emas.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

Mavjud emas.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Mavjud emas.

2.4.2 Hisobga olish asosi

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Yalpi ko'rsatkichni shakllantirish jarayonida jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati bilan shug'ullanuvchi barcha subyektlar, ularning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, umumiy hisobga olinadi.

3. Aniqlilik va ishonchlilik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyatining ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar IFUT-2 kodlari **55.10.0, 55.20.0, 86.10.0, 87.10.0 va 86.90.0** bo'lgan korxonalar katalogini shakllantirish orqali yig'iladi. Asosiy ma'lumot manbai — jamoaviy joylashtirish vositalari (mehmonxonalar va ularga tenglashtirilgan obyektlar) faoliyati hisoblanadi. Ushbu korxonalar har yili quyidagi yillik statistik hisobotlarni taqdim etadilar: 1 turizm shakli – “Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish to'g'risida hisobot”, 1 kb (tur) (1 kb shaklga ilova) – “Mikrofirmalar va kichik korxonalarining tashrif buyuruvchilarni joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha hisoboti”.

Hisobotlar **e-Stat 4 elektron ilovasi** orqali taqdim etiladi. Taqdim etilgan ma'lumotlar Milliy **statistika qo'mitasi** tomonidan belgilangan tartibda shakllantiriladi va umumlashtiriladi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun yig'iladigan birlamchi ma'lumotlar — bu hisobot davrida hududda faoliyat yuritayotgan mehmonxonalar, motel, mehmon uylari, sanatoriylar, dam olish maskanlari va boshqa jamoaviy joylashtirish vositalarining faoliyati, mavjud quvvatlari, joylashtirilgan shaxslar soni va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi to'g'risidagi boshlang'ich statistik axborotdir. Ushbu ma'lumotlar korxonalar tomonidan e-Stat 4 elektron ilovasi orqali statistika organlariga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamroviga Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan, **IFUT-2 55.10.0, 55.20.0, 86.10.0, 87.10.0 va 86.90.0** kodli barcha jamoaviy joylashtirish vositalari ro'yxatga olinishi kerak. Shuningdek, qamrovda O'zbekiston Respublikasi turizm qo'mitasi sanatoriyesi reyestri ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Ko'rsatkichning qamrovi quyidagi barcha turdagi jamoaviy joylashtirish vositalarini o'z ichiga oladi:

Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari

Individual joylashtirish vositalari

Boshqa joylashtirish vositalari

Qamrovdan chiqariladi:

Uy-joy fondi doirasidagi xonadonlarni ijaraga berish faoliyati (doimiy yashash uchun mo'ljallangan xususiy uylar yoki kvartiralarda qisqa muddatli ijara xizmatlari, agar ular yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa);

Korxonalarining o'z xodimlari uchun tashkil etgan yotoqxonalari;

Turistik agentliklar va tur operatorlari;

Transport vositalarida ko'rsatiladigan vaqtinchalik joylashtirish xizmatlari;

Dam olish uylari yoki oromgohlar tarkibida mavjud bo'lib, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida ro'yxatdan o'tmagan bo'linmalar.

Tasniflari

Birlamchi ma'lumotlar quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflanadi:

a) Mulkchilik shakli bo'yicha:

Davlat va xususiy tashkilotlar

b) Faoliyat turi bo'yicha:

Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari faoliyati;

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari faoliyati;

Individual joylashtirish vositalari faoliyati;

Boshqa joylashtirish vositalari faoliyati.

Faoliyat holati bo'yicha:

Faol

Vaqtincha faoliyatsiz

Yopilgan (faqat sof ko'rsatkichda chiqarib tashlanadi)

Birlamchi ma'lumotlarning baholanishi

Taqdim etiladigan ma'lumotlar quyidagilar orqali baholanadi va verifikatsiya qilinadi:

Turizm qo'mitasi reyestrlari bilan taqqoslash;

Tashkiliy-huquqiy maqom o'zgarishlarini aniqlash;

Takroriy qaydlarni bartaraf etish;

Manzil, nom, faoliyat turi bo'yicha aniqlik kiritish;

Baholash davomida aniqlangan nomuvofiqliklar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot so'rash yoki ma'lumotni qayta topshirish talabi berilishi mumkin.

Hisobga olish davri

Hisobga olish davri odatda **1 yil** bo'lib, ko'rsatkichlar hisobot yilining oxirgi holati (31-dekabr) bo'yicha shakllantiriladi.

Yil davomida ochilgan, qayta tashkil etilgan yoki yopilgan tashkilotlar haqidagi o'zgarishlar yakuniy davr holatida inobatga olinadi.

Idoraviy reyestr yangilanishi, statistik hisobotlar topshirilishi va hududiy organ tekshiruvlari asosida yakuniy aniqlashtirish amalga oshiriladi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyatining ko'rsatkichlari bo'yicha birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi — bu respondentlarga 1 turizm shakli "Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va joylashtirish to'g'risida", 1 kb (tur) (1 kb shaklga ilova) "Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va joylashtirish to'g'risida mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti" yillik statistik hisoboti o'z vaqtida va belgilangan tartibda taqdim etilishi to'g'risida xabardor qilinadi. Ushbu hisobot belgilangan vaqt oralig'ida to'liq yig'iladi. Milliy statistika qo'mitasi Yillik statistika dasturiga muvofiq yiliga bir marta byulleten va jadvallar ko'rinishida ma'lumotlarni tayyorlaydi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

“Jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati” to‘g‘risidagi ma‘lumotlar baholanadi, ular o‘rtasida tafovut mavjud bo‘lsa, sabablari aniqlanib, kelgusida shu kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ushbu holatlar yuzasidan respondentlar bilan tushuntirish ishlari tashkil etiladi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

Jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyatining ko‘rsatkichlarini shakllantirishda birlamchi ma‘lumotlar ustida statistik ishlov berish ma‘lumotlarning to‘g‘riligi, izchilligi, takrorlanmasligi va yakuniy ko‘rsatkichlarning ishonchliligini ta‘minlashga qaratilgan. Bu jarayon quyidagi statistik usullar asosida amalga oshiriladi:

1. Mantiqiy nazorat (logical control)

Tashkilot nomi, manzili, turi va faoliyat holati o‘rtasidagi moslik tekshiriladi.

Agar taqdim etilgan ma‘lumotlarda nomuvofiqliklar aniqlansa, ularni aniqlashtirish maqsadida korxonalar va tashkilotlarga darhol qayta so‘rov yuboriladi.

2. Strukturaviy tahlil (structural analysis)

Tashkilotlar tashkiliy-huquqiy shakli, turi va faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha tuzilma tahlil qilinadi.

Tashkilotlar tarkibidagi o‘zgarishlar struktura bo‘yicha taqqoslanadi.

3. Deduplikatsiya (takroriy ma‘lumotlarni chiqarib tashlash)

Bir xil tashkilotning turli nomlar yoki manzillar bilan ikki yoki undan ortiq marta kiritilgan holatlari aniqlanadi.

Idoraviy reyestrlar bilan solishtirish orqali takroriy qaydlar bartaraf etiladi.

4. Vaqt qatori bo‘yicha tahlil (time-series comparison)

Joriy yil ko‘rsatkichlari avvalgi yillar ma‘lumotlari bilan solishtiriladi.

Keskin o‘shish yoki kamayish holatlari aniqlansa, sabablar (yangi ochilish, yopilish, birlashish, qayta tashkil etish) aniqlashtiriladi.

5. O‘zaro solishtirish (cross-checking)

Tashkilotlar reyestrining bir nechta manba bilan mosligi tekshiriladi.

6. To‘liqlik va qamrov indekslari (coverage checks)

Hisobot topshirgan va topshirmagan tashkilotlar ro‘yxati solishtiriladi.

Qamrovda bo‘lishi kerak bo‘lgan, ammo hisobot bermagan tashkilotlar aniqlanadi va qo‘shimcha tekshiruv o‘tkaziladi.

7. Dinamik va hududlararo solishtirish (comparative analysis)

Tumanlar, shaharlar va viloyatlar bo‘yicha jamoaviy joylashtirish vositalari sonining nisbatlari tahlil qilinadi.

Hududlar o‘rtasida mantiqiy nomuvofiqliklar aniqlansa, hududiy organlar orqali aniqlashtiriladi.

8. Ma‘lumotlarni tozalash (data cleaning)

Texnik xatolar, bo‘sh maydonlar, noto‘g‘ri kodlar, noto‘g‘ri tasniflangan tashkilotlar aniqlanadi.

Har bir xato bo'yicha tuzatishlar kiritiladi.

9. Yakuniy validatsiya (final validation)

Barcha tekshiruv bosqichlari bajarilgandan so'ng yakuniy ro'yxat shakllantiriladi.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Mavjud emas.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Ushbu ko'rsatkichga qo'llanilmaydi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Ushbu ko'rsatkichga qo'llanilmaydi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Agar ilgari e'lon qilingan ma'lumotlarda nomuvofiqliklar aniqlansa, keyingi nashrlarda bu ma'lumotlarga aniqlik kiritiladi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Mavjud emas.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Davriylik va muddatlilik ma'lumotlarni tarqatishning umume'tirof etilgan standartlariga javob beradi. "Jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyati" bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik davriylikda chop etiladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha statistik ma'lumotlarni ishlab chiqarish va yillik ma'lumotlarni tarqatish Statistika dasturi asosida ma'lumotlarni e'lon qilish taqvimiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Ushbu ko'rsatkichga qo'llanilmaydi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Vaqt qatori bo'yicha tahlil (time-series comparison)

Joriy yil ko'rsatkichlari avvalgi yillar ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Keskin o'sish yoki kamayish holatlari aniqlansa, sabablar (yangi ochilish, yopilish, birlashish, qayta tashkil etish) aniqlashtiriladi.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik ushbu ko'rsatkichga qo'llanilmaydi.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Dastlabki ma'lumotlarning shakllantirish muddati va ularni qayta ko'rib chiqish asosida yakuniy ma'lumotlarning shakllantirilishi oldindan Statistika dasturida belgilab qo'yiladi. Statistika dasturi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb-saytiga (<https://stat.uz>) joylashtiriladi, shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz rasmiy saytida e'lon qilinadi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Yakuniy ma'lumotlar e'lon qilinadi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Statistik to'plamlarda oldingi yil uchun ayrim ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqilishi ko'rsatiladi. Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Milliy statistika qo'mitasining nashrlari orqali chop etiladi. Aniqlangan farqlarning tahlili natijalari haqida foydalanuvchilarga nashrlardagi izohlar orqali xabardor qilinadi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Ma'lumotlar Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan, statistik to'plamlarda keltirilgan shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarning so'roviga asosan taqdim etiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining "Turmush darajasi" (bir yilda bir marta), "O'zbekiston raqamlarda" (bir yilda bir marta), "Ayollar va erkaklar" (ikki yilda bir marta) nashrlari orqali bosma shaklda foydalanuvchilarga taqdim etib boriladi. Bundan tashqari, ma'lumotlar davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Ushbu ma'lumot har yili "O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari" statistik byulleteni orqali foydalanuvchilarga taqdim etiladi. Bundan tashqari, davlat boshqaruvi organlari va boshqa foydalanuvchilarga ularning so'roviga asosan kelishilgan jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Jadval ko'rinishda, foydalanuvchilarning so'roviga muvofiq.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

"O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olishni rivojlanishi" yillik press-relizi <https://stat.uz> saytida e'lon qilinadi va har yili yangilanadi.

5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

Ushbu ko'rsatkich Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida (<https://stat.uz>, <https://siat.stat.uz>) jamoatchilikka oldindan e'lon qilingan rasmiy statistik ma'lumotlarni e'lon qilish taqvimini hamda yillik Statistika dasturida belgilangan muddatlarga muvofiq e'lon qilinadi.

5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

Ko'rsatkich jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan rasmiy statistik axborotni e'lon qilish taqvimida hamda yillik Statistika dasturida belgilab qo'yilgan muddatlarga muvofiq ravishda Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida (<https://stat.uz>, <https://siat.stat.uz>) joylashtiriladi.

5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasining tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarga ularning so'rovlari bo'yicha belgilangan tartibda taqdim etib boriladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik yoki jismoniy shaxslarning so'rovlari bo'yicha bosma yoki elektron jadval ko'rinishida, statistik to'plamlar, byulletenlar, tezkor axborot shaklida, shuningdek, tomonlar o'rtasidagi axborot almashinuvi to'g'risidagi kelishuvlarga asosan amalga oshiriladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

Milliy statistika qo'mitasi veb-saytining INTERAKTIV XIZMATLAR saxifasida USLUBIY MATERIALLAR bo'limida, statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizomlar joylashtirilgan.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Milliy statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan rasmiy nashrlarda statistik ma'lumotlarni tayyorlash uchun mas'ul xodimlar bilan aloqa bog'lash bo'yicha manzillar (pochta, telefon, faks, elektron manzillar va h.k.) ko'rsatib qo'yiladi.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Takomillashtirish rejasi mavjud emas.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Takomillashtirish rejasi mavjud emas.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

Takomillashtirish rejasi mavjud emas.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Takomillashtirish rejasi mavjud emas.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

Takomillashtirish rejasi mavjud emas.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Nurov Abror Axatjon o'g'li
Lavozim:	Bo'limi boshlig'i
Bo'linma:	Madaniyat, turizm, sport va huquqbuzarlik sohaslarida statistik kuzatuvlar bo'limi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi
Manzil:	Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	+998(71) 203-80-00 (Ichki raqam-1306)
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	Ijtimoiy_soha@stat.uz